

MEVA-SABZAVOTNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA MOLİYAVIY NATIJALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH: OBYEKTAR KLASSIFIKATSIYASI, KONSOLIDATSIYA VA TAQSIMOT MEXANIZMI

Raxmatullayev Mirjalol Hatam o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi, Toshkent, O'zbekiston

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22723524>

Qabul qilindi: 4-sentabr 2026-yil • Ma'qullandi: 11-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 12-sentabr 2026-yil

Annotatsiya

Tezida meva-sabzavotni qayta ishlash korxonalarida moliyaviy natijalarni hisobga olish obyektlarining uch darajali klassifikatsiyasi, yozuvlarni «obyekt–funksiya–element» tamoyili bo'yicha kodlash tartibi hamda xizmat markazlari xarajatlarini texnologik drayverlar asosida mahsulot va bosqichlarga taqsimlovchi konsolidatsiya mexanizmi taklif etilgan. «Asian jam» va «Green world-group» MChJlarning 2021–2024-yillardagi ko'rsatkichlari tahlili davr xarajatlarining nazoratsiz o'sishi va ularning mahsulot hamda sotuv kanallariga bog'lanmagani operatsion marjani manfiy qiymatga olib kelganini ko'rsatdi. Takliflar O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan.

Kalit so'zlar:

moliyaviy natijalar hisobi, qayta ishlash korxonalari, klassifikatsiya, konsolidatsiya, taqsimot drayverlari.

KIRISH

Meva-sabzavotni qayta ishlash korxonalarida moliyaviy natija ishlab chiqarish tannarxi, realizatsiya hajmi, mahsulot sifati va resurs samaradorligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik asosida shakllanadi. Foyda yoki zarar 9000-«Asosiy faoliyatdan olingan daromadlar», 9300-«Boshqa faoliyatdan olingan daromadlar va xarajatlar» hamda 9900-«Yakuniy moliyaviy natija» hisobvaraqlari orqali aniqlanadi, «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonun [1] va moliyaviy hisob tizimini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish bo'yicha PQ-282-son qaror [2] esa har bir xo'jalik muomalasining daliliy asosda, iqtisodiy mazmuniga ko'ra tan olinishini talab qiladi. Amaldagi hisob tizimlarida esa turli bo'limlardan olinadigan ma'lumotlar bir-biriga mos kelmaydi, xizmat markazlari xarajatlari adolatli taqsimlanmaydi, qayta ishlash bosqichlari o'rtasidagi bog'liqlik zaif, «boshqa operatsion xarajatlar» toifasi esa haddan tashqari yirik; natijada moliyaviy natijalar to'liq aks ettirilmaydi va foydaning qaysi mahsulot, jarayon yoki segmentda yo'qotilayotgani ko'rinmaydi.

Muammoning ko'lamini tarmoq korxonalarining amaliy ko'rsatkichlari ko'rsatadi. «Asian jam» MChJda 2021–2024-yillarda sof tushum 3,76 trln so'mdan 5,92 trln so'mga oshgan bo'lsa-da, yalpi foyda marjasi 48,0 foizdan 26,6 foizga, operatsion marja 25,8 foizdan –1,2 foizga tushgan; «Green world-group» MChJda tushum 3,28 trln so'mdan 8,81 trln so'mga oshib, 2024-yilda yalpi marja 45,1 foizga ko'tarilgan bo'lsa-da, davr xarajatlarining 0,78 trln so'mdan 2,87

trln so'mga (3,7 barobar) o'sishi operatsion marjani –9,9 foizga olib kelgan. Konserva sanoati korxonalarining moliyaviy natijalarini prognozlashning axborot-tahliliy ta'minoti R.V. Skachkova [3], moliyaviy natijalar hisobi va auditi metodologiyasi A.Z. Avloqulov [4], strategik boshqaruv hisobi va nazorat M. Spenser [5] ishlarida o'rganilgan; biroq qayta ishlash korxonalarida moliyaviy natijalar obyektlarini texnologik jarayonlar, xizmat markazlari va sotuv kanallari kesimida klassifikatsiyalash hamda ularni konsolidatsiya qilishning yaxlit mexanizmi ishlab chiqilmagan. Tезisning maqsadi ana shu mexanizmni asoslashdan iborat.

TADQIQOT USULI

Tadqiqotda «Asian jam», «Green world-group» va «East agro international» MChJlarning 2021–2024-yillardagi moliyaviy hisobotlari, hisob siyosati va ishlab chiqarish hisobotlari, 21-son BHMS, IFRS 15 «Mijozlar bilan tuzilgan shartnomalar bo'yicha tushum» va IAS 2 «Zaxiralar» standartlari ma'lumot manbai bo'lib xizmat qildi. Guruhlash, taqqoslash, monografik o'rganish, gorizonta va vertika tahlil, xarajat-daromad-foyda modeli, ekspert baholash hamda hisob yozuvlarini modellashtirish usullaridan foydalanildi. Korxonalar hisobotlarining turlicha nomlangan xarajat satrlari yagona iqtisodiy elementlar bo'yicha birlashtirilib, davr xarajatlari va ishlab chiqarish tannarxi alohida ajratildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Moliyaviy natijalarni hisobga olish obyektlari to'rt guruhga ajratiladi: asosiy faoliyat natijalari (tayyor va yarim tayyor mahsulot hamda xizmatlar realizatsiyasidan olingan daromad va ularning tannarxi), boshqa faoliyat natijalari (asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, investitsiyalar va valyuta operatsiyalari), moliyaviy faoliyat natijalari (foizlar, dividendlar, kurs farqlari, qarz xizmati) hamda favqulodda faoliyat natijalari. Ularni tizimli hisobga olish uchun uch darajali klassifikatsiya taklif etildi: birinchi daraja – faoliyat turi (ishlab chiqarish, sotuv, moliyaviy va boshqa faoliyat), ikkinchi daraja – natijaning iqtisodiy mohiyati (daromad, xarajat, foyda, zarar), uchinchi daraja – moliyaviy manba va obyekt (mahsulot guruhi, bozor segmenti, eksport yo'nalishi, xarajat markazi, valyuta turi). Shu asosda 9000-hisobvaraq doirasida sharbat, konserva, quritilgan va muzlatilgan mahsulotlar uchun alohida analitik hisobvaraqlar ochiladi va har bir mahsulot bo'yicha tushum, tannarx va foyda marjasi alohida ko'rinadi; daromad IFRS 15 talabiga ko'ra mahsulot xaridorga yetkazilib, iqtisodiy foyda olinishiga ishonch paydo bo'lgan paytda, xarajat esa foyda keltiruvchi jarayon tugallangan davrda tan olinadi.

Klassifikatsiyani amaliyotga tatbiq etish uchun ikki bosqichli kodlash tizimi joriy etiladi: har bir yozuv «obyekt–funksiya–element» tamoyili bo'yicha kodlanadi (masalan, «SKU123–qadoqlash–material» yoki «Toshkent_hududi–sotuv–transport»), unga «o'zgaruvchan/doimiy» va «boshqariladigan/boshqarilmaydigan» atributlari birlashtiriladi. Bu usul turli bo'linmalarda bir xil xarajatlarni paydo bo'lganda ularni izchil taqqoslash, menejmentga esa xarajatlarni nafaqat «qayerda», balki «qanchalik boshqarish mumkin» nuqtayi nazaridan tahlil qilish imkonini beradi. Moliyaviy natijalarni hisobga olishning asosiy obyektlari, ular bo'yicha xarajatlarni taqsimlash drayverlari va daliliy hujjatlar 1-jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval. Moliyaviy natijalarni hisobga olish obyektlari, taqsimot drayverlari va daliliy hujjatlar

Obyektlar guruhi	Obyektlar	Taqsimot drayveri	Daliliy hujjat
Mahsulot turlari	Sharbat, konservalar, pyure va pastalar, quritilgan va muzlatilgan mahsulotlar	Kilogramm, litr, partiya	Ishlab chiqarish hisoboti, tayyor mahsulotni qabul qilish dalolatnomasi
Mijozlar va sotuv kanallari	Ichki bozor, eksport, distribyutor tarmoqlari	Buyurtmalar soni, paleta-kilometr, yetkazib berish manzillari	Shartnoma, hisob-faktura, bojxona va sertifikat hujjatlari

Obyektlar guruhi	Obyektlar	Taqsimot drayveri	Daliliy hujjat
Jarayon markazlari	Qabul-tayyorlov, qaynatish va konsentratsiya, aseptik to'ldirish, qadoqlash	Bug' kilogrammi, mashina-soat, partiya soni	Ishlab chiqarish buyrug'i, texnologik jarayon jurnali
Yordamchi xizmatlar	Energetika, sovuqlik, texnik xizmat, laboratoriya, logistika, sanitariya	kVt-soat, ish-soat, sinovlar soni, tonna-kilometr, yuvish sikllari	Hisoblagich qaydnomasi, texnik xizmat varaqasi, laboratoriya protokoli
Yo'qotishlar va qo'shma mahsulotlar	Me'yoriy va g'ayrime'yoriy yo'qotishlar, yon mahsulotlar	Nisbiy sotuv qiymati yoki sof realizatsiya qiymati	Inventarizatsiya dalolatnomasi, brak akti, kalkulyatsiya varaqasi

Manba: muallif ishlanmasi.

Konsolidatsiya – turli bo'limlar, xizmat markazlari va jarayonlardan olingan hisob ma'lumotlarini yagona tizimda birlashtirish jarayonidir. Ishlab chiqarish bloklari (qabul-tayyorlov, qaynatish, aseptik to'ldirish, qadoqlash), yordamchi xizmatlar (energetika, sovuqlik ta'minoti, texnik xizmat, laboratoriya, ichki logistika) va boshqaruv xarajatlari bo'yicha ma'lumotlar tegishli hisobvaraqlarda jamlanib, konsolidatsiya jurnalida birlashtiriladi va korxona darajasida yagona moliyaviy natija modeli shakllanadi. Taqsimot mexanizmi bosqichma-bosqich amalga oshiriladi: avval barcha xarajatlar manbai bo'yicha (materiallar, energiya, mehnat, amortizatsiya, xizmatlar) yig'iladi; so'ngra yordamchi bo'limlarda to'plangan xarajatlar texnologik drayverlar asosida asosiy jarayonlarga uzatiladi – energetika xarajatlari elektr energiyasi sarfi yoki bug' miqdoriga, texnik xizmat xarajatlari mashina-soat yoki buyurtmalar soniga, laboratoriya xarajatlari sinovlar soniga, logistika xarajatlari tonna-kilometrga nisbatan. Sovuqlik stansiyasi, energetika va texnik xizmat kabi o'zaro bog'liqligi kuchli bo'limlarda bosqichma-bosqich yoki o'zaro xizmatni to'liq hisobga oluvchi taqsimlash usullari qo'llanadi. Bir liniyada bir nechta mahsulot ishlab chiqarilganda umumiy xarajatlar sof realizatsiya qiymati yoki nisbiy sotuv qiymati bo'yicha taqsimlanadi; me'yoriy yo'qotish tannarxda qoldiriladi, g'ayrime'yoriy yo'qotish esa foyda yoki zarar hisobiga o'tkaziladi.

Mexanizmning zarurligini ikki korxonaning moliyaviy natijalari bo'yicha tahliliy solishtirma (2-jadval) yaqqol ko'rsatadi.

2-jadval. «Asian jam» va «Green world-group» MChJlar moliyaviy natijalarining tahliliy solishtirmasi

Ko'rsatkich	AJ 2021	AJ 2023	AJ 2024	GWG 2021	GWG 2023	GWG 2024	Tahliliy izoh
Sof tushum, trln so'm	3,76	6,11	5,92	3,28	7,90	8,81	Ikkala korxonada tushum o'sgan
Ishlab chiqarish tannarxi, trln so'm	1,95	4,55	4,35	2,13	5,23	4,83	AJda tannarx tushumdan tez o'sgan
Yalpi foyda marjasi, %	48,0	25,5	26,6	35,0	33,8	45,1	AJ marjasi ikki baravar qisqargan
Davr xarajatlari, trln so'm	0,83	1,47	1,72	0,78	1,80	2,87	Xarajatlar 2,1 va 3,7 barobar o'sgan
Operatsion foyda, trln so'm	0,97	0,09	-0,07	0,37	0,64	-0,87	2024-yilda ikkalasida zarar
Operatsion marja, %	25,8	1,3	-1,2	11,3	8,1	-9,9	Davr xarajatlari yalpi foydani «yutgan»

Ko'rsatkich	AJ 2021	AJ 2023	AJ 2024	GWG 2021	GWG 2023	GWG 2024	Tahliliy izoh
Material chiqishi, %	93,5	94,7	95,1	91,8	92,6	93,3	Texnologik samaradorlik oshgan
Me'yordan ortiq yo'qotish, %	2,7	3,9	3,2	3,5	4,4	4,7	Yo'qotishlar nazorati zaif
Sof foyda rentabelligi, %	13,5	4,2	-2,1	9,8	6,7	-5,4	Foyda manbalari ajratilmagan

Manba: korxonalarining moliyaviy hisobotlari asosida muallif hisob-kitobi.

Jadval ma'lumotlari «Asian jam» MChJda tushum o'sgan sharoitda materiallar va logistika xarajatlari bosimi ortib, operatsion marja pasayganini, «Green world-group» MChJda esa yalpi foyda oshganiga qaramay, davr xarajatlarining keskin o'sishi operatsion foydani manfiylashtirganini ko'rsatadi; har ikki korxonada material chiqishi yaxshilangani holda me'yordan ortiq yo'qotishlar ulushi kamaymagan. Bu holatlarni bartaraf etish uchun to'rt taklif ishlab chiqildi: xarajatlarni SKU, mijoz segmenti va hudud kesimida qayta taqsimlash; omil bazalarini texnologik asoslilik (mashina-soat, paleta-kilometr, test/partiya) bo'yicha qayta kalibrlash; marketing va realizatsiya xarajatlari samaradorligini investitsiya rentabelligi (ROI) va marketing investitsiyasi rentabelligi (ROMI) mezonlari orqali baholash; energetika va sovuqlik zanjiri bo'yicha alohida hisoblagichlar kiritib, ularni ERP tizimiga integratsiyalash. Shu asosda tuzilgan «moliyaviy hisob ko'prigi» daromadni tannarxga, tannarxni yalpi foydaga, yalpi foydani esa operatsion foydaga bog'lab beradi va foydaning qaysi mahsulot, jarayon yoki segmentda pasayganini ko'rsatadi.

Mexanizmning ishonchliligi ichki nazorat tartiblari bilan ta'minlanadi: har bir buxgalteriya yozuvi energiya hisoblagichi, laboratoriya protokoli, texnik xizmat dalolatnomasi yoki ombor orderi bilan tasdiqlanadi; qo'shma mahsulotlar xarajatini taqsimlash tartibi davriy tekshiriladi; me'yoriy va ortiqcha yo'qotish chegarasi tasdiqlangan hujjatda ko'rsatiladi; har chorakda konsolidatsiya oqimlari (asosiy ishlab chiqarishdan tayyor mahsulotga, tayyor mahsulotdan sotuv natijalariga o'tish) rekonsilyatsiya qilinadi. Moliyaviy natijalar hisobini takomillashtirish besh yo'nalishda amalga oshiriladi: hisobni raqamlashtirish, tahliliy segmentatsiya, daromadlarni IFRS 15 talabiga muvofiq aniq tan olish, xarajatlarni to'liq aks ettirish va har bir operatsiya uchun «audit izi»ni saqlash. Taklif etilgan yondashuv O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (2026-yil 21-apreldagi 01-06-30-3857-son ma'lumotnoma).

XULOSA

1. Meva-sabzavotni qayta ishlash korxonalarida moliyaviy natijalarni hisobga olish obyektlarini faoliyat turi, iqtisodiy mohiyati hamda manba va obyekt kesimida uch darajada klassifikatsiyalash va yozuvlarni «obyekt-funksiya-element» tamoyili bo'yicha kodlash foyda manbalarini mahsulot, segment va xarajat markazi darajasida aniqlash imkonini beradi.

2. Xizmat markazlari xarajatlarini texnologik drayverlar (bug' kilogrammi, kVt-soat, mashina-soat, partiya soni, paleta-kilometr) asosida asosiy jarayonlarga uzatuvchi konsolidatsiya va taqsimot mexanizmi tannarx aniqligini oshiradi, xizmat markazlarining iqtisodiy samaradorligini ochib beradi va jarayonlar bo'yicha rentabellik tahlilini osonlashtiradi.

3. Ikki korxonaning 2021–2024-yillardagi ko'rsatkichlari davr xarajatlarining 2,1–3,7 barobar o'sishi va ularning mahsulot hamda kanallarga bog'lanmagani operatsion natijani manfiy qiymatga olib kelganini tasdiqlaydi; xarajatlarni SKU va segment kesimida qayta taqsimlash, drayverlarni qayta kalibrlash, ROI va ROMI mezonlari hamda alohida hisoblagichlar bu yo'qotishlarni erta aniqlashga xizmat qiladi.

4. Har bir yozuvni birlamchi hujjat bilan bog'lovchi, choraklik rekonsilyatsiya va «audit izi»ga tayanuvchi tizim moliyaviy natijalarning ishonchliligini oshiradi va korxonani xalqaro hisobot hamda raqamli audit muhitiga yaqinlashtiradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi 2016-yil 13-apreldagi O'RQ-404-son Qonuni. (2016). Xalq so'zi, 14.04.2016, № 73 (6508).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2025-yil 15-sentabrdagi PQ-282-son Qarori. (2025). Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz>
3. Скачкова, Р. В. (2004). Информационно-аналитическое обеспечение прогнозирования финансовых результатов предприятий консервной промышленности [Автореферат диссертации кандидата экономических наук]. Саратов.
4. Авлоқулов, А. З. (2019). Молиявий натижалар ҳисоби ва аудити методологиясини такомиллаштириш [Иқтисодиёт фанлари доктори диссертацияси автореферати]. Тошкент.
5. Spencer, M. (2015). Strategic management accounting and control. Cambridge University Press.